

BIOLOGIYADAN O'QUV ISHLARINI TASHKIL ETISH, YILLIK TAQVIM, YILIK REJA TUZISH

Abduraxmonova Mahliyo
Nishonboyeva Shohista

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Biologiya yo'nalishi talabalari
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14250086>

Annotatsiya: Biologiya fanidan o'quv ishlarini tashkil etishda yillik taqvim va reja tuzish jarayoni o'quvchilarga sifatli ta'lim berish uchun zarur. Yillik reja o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi, barcha mavzularni mukammal o'rganishga imkon yaratadi va o'qituvchilarga o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilishni osonlashtiradi.

Abstract: In the organization of educational work in biology, the process of creating an annual calendar and plan is necessary to provide quality education to students. The annual plan helps to increase the efficiency of the educational process, makes it possible to study all subjects perfectly, and makes it easier for teachers to monitor the knowledge of students.

Аннотация: При организации учебной работы по биологии процесс создания годового календаря и плана необходим для обеспечения качественного образования студентов. Годовой план помогает повысить эффективность учебного процесса, дает возможность изучить все предметы на отлично, облегчает преподавателям контроль знаний учащихся.

Kalit so'zlar: Yillik taqvim, ishchi dastur, na'munaviy dastur, didaktika, amaliy mashg'ulot, baholash mezonlari, eksprementlar.

Key words: Annual calendar, working program, model program, didactics, practical training, evaluation criteria, experiments.

Ключевые слова: Годовой календарь, рабочая программа, типовая программа, дидактика, практика, критерии оценки, эксперименты.

Biologiya fanidan o'quv ishlarini samarali tashkil etish uchun o'quvchi va o'qituvchining faol ishtiroki, zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalanish va o'quvchilarning bilimlarini tizimli ravishda rivojlantirish zarur. Biologiya fanining o'ziga xosligi, ilmiy kuzatishlar, tajribalar va amaliy mashg'ulotlar orqali chuqur tushuncha hosil qilishni talab qiladi.

Maktablarda o'tilgan har bir o'quv fanining mazmuni o'quvchilar bilishi kerak bo'lgan bilimlar, o'zlashtirishi kerak bo'lgan o'quv ko'nikmalar, malakalar yig'indisini ifoda qiluvchi hujjat-o'quv dasturi hisoblanadi. [3]. O'quv dasturi o'quv fanini o'qitishdan maqsad, vazifalar, o'quvchilar o'zlashtirishi kerak bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar kompleksini o'zida mujassamlashtiradi.

Biologiya fanidan o'quv ishlarini tashkil etish, yillik taqvim va yillik reja tuzish o'quv jarayonining samarali va tizimli bo'lishini ta'minlash uchun zarur. Quyida biologiya fanidan o'quv ishlarini tashkil etish, yillik taqvim va yillik reja tuzish bo'yicha umumiy tavsiyalar berilgan.[4]

1.O'quv ishlarini tashkil etish: Biologiya fanidan o'quv ishlarini samarali tashkil etish uchun o'quvchi va o'qituvchining aktiv ishtiroki, zamonaviy ta'lim metodlari va usullaridan foydalanish va o'quvchilarning bilimlarini tizimli ravishda rivojlantirish zarur. Biologiya

fanining o'ziga xosligi, ilmiy kuzatishlar, tajribalar va amaliy mashg'ulotlar orqali chuqur tushuncha hosil qilishni talab qiladi. Dars rejalari: har bir dars mavzusiga doir reja tuzish. Bu rejalar orqali yangi mavzuni tushuntirish, laboratoriya ishlarini bajarish, o'quvchilarga mustahkamlovchi mashqlar va savollar berish, tarqatma materiallaridan foydalanish kiradi. O'quv ishlarini tashkil etishda differensiyatsiya usuli ya'ni o'quvchilarning bilim darajasiga qarab turli yondoshuvlar va vazifalarni taqdim etish yo'lidir. Faollashtirish esa o'quvchilarni darsda faol ishtirok etishga undash, turli didaktik savollar tayyorlash, savollarni o'z vaqtida berish va ularga mulohazalarini bildirish imkonini yaratishdirlar iborat.

2. Yillik taqvim tuzish. Yillik taqvim, o'quv yilida biologiya fanini o'rganish uchun zarur bo'lgan barcha darslarni, laboratoriya ishlarini, amaliy mashg'ulotlarni va tekshiruvlarni belgilab beradi.

Yillik taqvimda quyidagilarni inobatga olish zarur: mavzular bo'yicha taqvim tuzish, har bir darsni o'z vaqtida o'qitishni rejalashtirish, taqvimda dam olish kunlari va bayram kunlarini hisobga olish, darslarni shu kungacha xos ravishda rejalashtirish;

Imtihon va testlar: yilning o'rtalarida va oxirida imtihonlar yoki testlar (Og'zaki, yozma, test shaklida) o'tkazish va shu kabi muhim xususiyatlarini inobatga olgan holda yillik taqvim tuzish muhim hisoblanadi.

3. Yillik reja tuzish. Yillik reja biologiya fanining barcha mavzularini o'qish va ularni maqsadga muvofiq tarzda o'rganish uchun tuziladi. Yillik reja biologiya fanining har bir bo'limini o'z ichiga olishi kerak. Masalan:

1. Biologiya fan sifatida
2. Tirik organizmlarning kimyoviy tarkibi
3. Uglevod va lipidlar
4. Oqsillar

4. Yillik rejaning tarkibi: mavzu va maqsadlar: Har bir darsning asosiy maqsadi va yondoshuvlarini belgilash. Darsning har bir mavzusini asosiy maqsadini belgilab olish kerak, yondoshuvini aniqlab shunga yarasha tayyorgarlik ko'rishi lozim. **O'qitish metodlari:** Darslarda foydalaniladigan metodlar (davomiylik, darsliklardan foydalanish, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, multimediyali materiallar). Har bir darsga o'ziga yarasha yondashish slayd, video ro'liklar tayyorlash, laboratoriya mashg'ulotiga munosib tayyorgarlik ko'rish. Baholash mezonlari: O'quvchilarning bilimlarini baholash asosan, o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasida mutanosib vazifalar ya'ni yig'ma testlar, yozma ishlar, amaliy topshiriqlar orqali o'quvchi bilimlarini baholash lozim. Tashkiliy masalalar esa darsning tartibi, joylashuvi, vaqti va o'quvchilarni baholash usullari kabi tashkiliy ishlar olib boriladi.

5. Biologiya darslarida o'qitish usullari

Eksperimentlar va amaliy mashg'ulotlar: Biologiya fanini o'rganishda tajriba va amaliy ishlar juda ahamiyatlidir. O'quvchilar o'z bilimlarini laboratoriya ishlarida mustahkamlashlari mumkin.[1]

Kreativ yondoshuv esa darslarni interaktiv qilish, masalan, o'yinlar, didaktik o'yinlar, muhokamalar, muommoli vaziyatlar va yechimlar, guruh ishlari orqali o'quvchilarning ishtirokini oshirish hisoblanadi.

Ijtimoiy tarmoqlar va texnologiyalar: O'quvchilarga biologiya faniga oid onlayn resurslardan foydalanishni o'rgatish, ya'ni turli internet saytlaridan kerakli ma'lumotlarni olish va ulardan foydalanishni o'rgatish.

O'quv dasturining metodik tavsiyalarida yana biologiyaning muommoli mavzularini o'qitishda xam fikrlikni oshirish, har bir dunyoqarashining o'ziga xos ijobiy taraflari va kamchiliklari o'quvchilarga yetkaza olish qobiliyati bo'lishi kerakligi haqida aytib o'tilgan.[2]

**BIOLOGIYA O'QUV FANI (MODULI) NING MASHG'ULOT TURLARI BO'YICHA
MAVZULAR REJASI, TAQVIM VA MAZMUNI**

Fan (moduli) mavzulari va mustaqil ta'lim	Mashg'ulot turi va soat	O'rganish natijalari (learning outcomes)	O'rganish natijalarini baxolash	O'rgatiladigan bilimlar	Shakllantiriladigan ko'nikmalar
<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>	<i>5</i>	<i>6</i>	<i>7</i>
Biologiyaning fan sifatida	N 2	Biologiyaga faninig maqsad va vazifalari to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladi.	Hayot shakllarining xilma-xilligini ifodalaydi va aytib beradi.	Tiriklikning tuzilish darajalarining strukturasi va mazmuniga ega bo'ladi.	Hayotning tuzilish darajalarini modellashirish usulidan foydalanish ma'lumotlarga ega bo'ladi.
Mustaqil ta'lim	2				
Tirik organizmlarning kimyoviy tarkibi.	N 2	Hujayraning anorganik birikmalari to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'ladi.	Kimyoviy elementlarining biologik ahamiyatini ifodalaydi va aytib beradi.	Organik birikmalar va ularning tashrifining strukturasi va mazmuniga ega bo'ladi.	Suvning tirik organizmlar uchun ahamiyati haqidagi bilimlardan foydalanish ma'lumotlarga ega bo'ladi.
Uglevodlar va lipidlar	N 2	Uglevod va lipidlarning tuzilishi va xilma-xilligi haqida ma'lumotga ega bo'ladi.	Odatiy va murakkab lipidlar, steroidlarni ifodalaydi va aytib beradi.	Uglevodlarning hujayra hayotiy faoliyatidagi ahamiyati, strukturasi va mazmuniga ega bo'ladi.	Lipidlarning hujayra hayotiy faoliyatidagi ahamiyati haqida bilimlardan foydalanish ma'lumotlarga ega bo'ladi.
Oqsillar	N 2	Aminokislotalar oqsillarning tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'ladi.	Oqsillar tuzilishi va funktsiyalarining o'zaro bog'liqligini ifodalaydi va tushuntirib beradi.	Oqsillarning xossalari, strukturasi va mazmuniga ega bo'ladi.	Oziq-ovqat mahsulotlari tarkib infografikasini tuzish sxemasida foydalanish ma'lumotlarga ega bo'ladi.
Nuklein kislotalar	N 2	Nukleotidlar va DNK to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'ladi.	DNK ning tuzilishi, xususiyatlari va funktsiyalarini ifodalaydi va aytib beradi.	RNKning tuzilishi, xususiyatlari, turlari va funktsiyalari, strukturasi va mazmuniga ega bo'ladi.	DNK va RNK tuzilishiga doir masalalar yechish usullarida foydalanish ma'lumotlarga ega bo'ladi.
Mustaqil ta'lim	2				
Eukariot hujayra va hujayra qobig'i.	N 2	Eukariotlarning o'ziga xos xususiyatlari	Eukariot hujayralarining xilma-	Eukariot organizmlarining asosiy komplementlari	Plazmatik membrananing tuzilishi, xususiyatlari,

1-rasm. Yillik ishchi dasturdan namuna

Oraliq nazorat: Bob yuzasidan savol, test yechish.	2		to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'ladi.	xilligini ifodalaydi va aynib beradi.	strukturalari va mazmuniga ega bo'ladi.	funktsiyalarini o'rganish haqida ma'lumotlardan foydalanish ma'lumotlarga ega bo'ladi.
Labaratoriya mashg'uloti: Plazmatik membrana o'tkazuvchanligiga haroratning ta'sirini o'rganish.	L	2	Ishning maqsadi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi.	Plazmatik membrana o'tkazuvchanligiga haroratning ta'sirini ifodalaydi va aynib beradi.	Mashg'ulot uchun kerakli asbob va jihozlar va ularning strukturalari va mazmuniga ega bo'ladi.	Ishni bajarish tartibini o'rganish va foydalanish ma'lumotlarga ega bo'ladi.
Prokariot hujayralar.	N	2	Prokariotlarning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi.	Bakteriyalarning xilma-xilligini ifodalaydi va aynib beradi.	Bakteriya hujayrasining strukturalari va mazmuniga ega bo'ladi.	Prokariot va eukariot hujayra nisbatlarini qiyosiy o'rganish va foydalanish ma'lumotlarga ega bo'ladi.
Mustaqil ta'lim	2					
Hujayrada moddalar almashinuvi. Hujayrada energiya almashinuvi.	N	2	Metabolizm to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'ladi.	Moddalar almashinuvi ifodalaydi va aynib beradi.	Moddalar almashinuvi va energiya almashinuvi o'zaro bog'lanish usullari, strukturalari va mazmuniga ega bo'ladi.	Oqsil biosintez jarayonini o'rganish va bu haqidagi bilimlardan foydalanish ma'lumotlarga ega bo'ladi.
Labaratoriya mashg'uloti: Mitoz jarayonini mikropreparatlar yordamida o'rganish.	L	2				
Hujayrada irsiy axborotning amalga oshirilishi.	N	2	Genetik kod. Manritsali sintez reaksiyalari to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'ladi.	Hujayra tiriklikning irsiy birligi haqidagi savollarga javob beradi, ifodalaydi va aynib beradi.	DNK reduplikatsiyasi, Transkripsiya va Translyatsiyaning strukturalari va mazmuniga ega bo'ladi.	Energiya almashinuviga doir masalalar yechish usullaridan foydalanish ma'lumotlarga ega bo'ladi.
Mustaqil ta'lim	2					
Organizmlarning jinsiy va jinsiy ko'payishi.	N	2	Organizmlarning ko'payishi haqidagi ma'lumotga ega bo'ladi.	Ko'payish haqida umumiy ma'lumot beradi, ifodalaydi va aynib beradi.	Bakteriya, zambiarug', o'simlik, hayvonlarning jinsiy ko'payishi strukturalari va mazmuniga ega bo'ladi.	Jinsiy ko'payishning ahamiyati to'g'risidagi ma'lumotlardan savol javobda foydalanish ma'lumotlarga ega bo'ladi.
Oraliq nazorat: Bob yuzasidan savol, test yechish to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi.	2					

2-rasm. Yillik ishchi dasturdan namuna

Xulosa. Biologiyani o'qitishda o'quv ishlarini to'g'ri tashkil etish bu juda muhim jarayon hisoblanib, har bir pedagog uchun dastlabki ishdur. Biologiya o'qituvchisi avvalombor darsni tashkil etish va yillik taqvim, yillik reja tuzishni o'zi tushunib olishi lozim. O'quvchilarni darsga to'g'ri yo'naltira olish va qiziqtirish asosiy vazifa hisoblanadi. Buning uchun didaktik o'yinlarda keng foydalanish, muommoli vaziyatlar metodidan, insert usullaridan foydalanish yaxshi natija beradi. Lekin har bir mavzuga doir to'g'ri tanlangan metodika mavzu mohiyatini yanada ochib beradi fikrimcha.

References:

1. Biologiya o'qitish metodikasi o'quv dasturi. Majmua. Chirchiq-2024
2. Biologiyani o'qitishning umumiy metodikasi. A.T.G'ofurov 2005-yil
3. Biologiya o'qitish metodikasi. A.T.G'ofurov, J.O.Tolipova. Toshkent-2004
4. Biologiya o'qitish metodikasi. S.X.Suliyeva, Q.G'.Zokirov. Toshkent-2020
5. cspu.uz
6. arxiv.uz
7. Wikipedia.org
8. arroziy.uz